



Rasmga qarang. Har bir bola qanday ob-havoda sayr qilishga chiqqanini toping.



1. Ob-havo nima?

Insonning hayoti har kungi ob-havo bilan bog'liq. Shuning uchun inson ko'chaga chiqishidan oldin ob-havoga qarab kiyinadi va o'zi bilan kerakli anjomlarni olishga harakat qiladi. Ob-havo ko'pincha bizning kayfiyatimizga ham ta'sir qiladi: quyoshli yorqin kunda kayfiyat ko'tariladi va xuddi "quyoshli" kun kabi ravshanlashadi.

Ob-havo – bu ma'lum bir joyda va ma'lum vaqtdagi atmosferaning holati. U yil fasli, ob-havo kuzatilayotgan joy, shamol yo'nalishi, havo harorati va namligi, havo bosimi, qo'shni hududlardagi ob-havo kabi ko'plab sabablarga bog'liq bo'ladi. "Bugun ob-havo qanday?" deb so'ralganda, birinchi navbatda, o'sha kundagi havo harorati, shamol va yog'ingarchiliklar nazarda tutiladi.



1-topshiriq.

Qaysi kiyimlar qorli, qaysilari yomg'irli va qaysilari quyoshli ob-havoga mos kelishini belgilang.

2. Yog'ingarchilik

Yog'ingarchilik – atmosferadan yerga turli xil ko'rinishda tushadigan suv bo'lib, ularga yomg'ir, qor, do'l, shudring va qirov kiradi.



Qishda quyosh nurlari yerni kamroq qizdirgani sababli, havo va yer soviydi. Osmon ko'pincha bulutli bo'ladi. Agar issiq mavsumda bulutlardan yomg'ir yog'sa, qishda yomg'ir tomchilari sovuq havoda muzlaydi va qor parchalariga aylanadi.

Do'l – kichik muz sharchalari bo'lib, odatda, u issiq mavsumda yomg'irdan oldin yog'adi. Ko'pincha do'l uylar va mashinalarning tomlarini teshib o'tadi, daraxtlarga zarar yetkazib, katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Shudring – bahor, yoz va kuz oylarida ertalab o'simliklarning yaproqlarida hosil bo'ladigan mayda suv tomchilari. Tunda havo salqin bo'lib, havodagi namlik o'simliklarning barglari va gullariga o'tiradi. Kech kuzda, tunda harorat noldan pastga tushganda, shudring muzlaydi va qirovga aylanadi.



Yog'ingarchilikning qanday foydasi bor?

3. Ob-havo hodisalari

Ob-havo hodisalariga bulut, harorat o'zgarishi, shamol, momaqaldiroq, tuman kiradi.

Tiniq osmonda deyarli bulutlar bo'lmaydi. Agar osmonning bir qismini bulutlar qoplasa, havo kam bulutli deyiladi. Bulutli havoda butun osmon bulutlar bilan qoplanadi.



Shamol – havoning harakati. U kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Eng kuchli shamol – to'fon bo'lib, u uylarning tomlarini ko'chirib ketishi, daraxtlarni sindirishi, mashinalarni havoga ko'tarishi mumkin.



**Shamolsiz tinch
payt**



Shamol



To'fon




2-topshiriq.

Qaysi sohalarda ishlaydiganlar ob-havo ma'lumotlarini oldindan bilishlari kerak?

4. Shartli belgilar

Bugun yoki hafta davomida ob-havo qanday bo'lishini Internetdan yoki teleko'rsatuvlar orqali bilib olish mumkin. Ushbu ma'lumotlarni ob-havoni kuzatuvchi olimlar – meteorologlar to'playdilar. Ular ob-havo hodisalarini ifodalash uchun maxsus belgilarni ishlab chiqqanlar.



Havo ochiq



Quyug bulut




Bulut



Yomg'ir



Momaqalldiroq



Shamol



Tuman



Do'l



3-topshiriq.

Ob-havo hodisalarini ifodalovchi shartli belgilarni daftaringizga yozing.

Quyidagi qisqa shartli belgilar orqali yaqin kunlarda ob-havo qanday bo'lishi haqida ko'p ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

TOSHKENT	DU	SE	CH	PA	JU	SH
16°	10°	15°	18°	11°	12°	10°



Ayting-chi, bu ob-havo ma'lumotlari nimalar haqida xabar bermoqda?